



«OILA VA BOLA TARBIYASI»

Qońuratbaeva Dilnaz Erpolat qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Yuridika fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizda oila qadriyatining ahamiyati, demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurishda oilaning roli, oilalarda tarbiyalanayotgan yosh avlodni vatan rivoji uchun hissa qo'shadigan avlodlar sifatida tarbiyalash kabi masalalar keltirilgan.

Kalit sòzlar: Oilà, konstitutsiya, demokratiya, bola tarbiyasi, davlat, mustaqillik, huquq va axloq.

Аннотация: В данной статье представлены такие вопросы, как значение ценности семьи в нашем народе, роль семьи в построении демократического государства и гражданского общества, воспитание молодого поколения, воспитывающегося в семьях, как поколений, способствующих развитию страны.

Ключевые слова: семья, конституция, демократия, детское воспитание, государство, независимость, право и этика.

Abstract: This article presents issues such as the importance of the value of the family in our nation, the role of the family in building a democratic state and civil society, raising the young generation raised in families as generations that contribute to the development of the country.

Key words: Family, constitution, democracy, child education, state, independence, law and morality.

Oila Sharq xalqlarida, shu jumladan qoraqalpoqlarda va o'zbeklarda ham fuqarolik jamiyatining tayanchi hisoblangan ulug' qadriyatdir. Oilani fuqarolik jamiyatining va davlatning rivojlanishida eng muhim poydevor deb qaraymiz. Chunki, ertangi kuni shu jamiyat a'zosi bòladigan, vatan rivojiga katta hissa qo'shadigan yoshlарimiz tarbiyasi oiladan boshlanadi.

Shuning uchun ham oilada bolalar tarbiyasi katta ahamiyat kasb qiladi. Oilada bolalar o'z ota-onalariga, qarindoshlariga va do'stlariga nisbatan yaxshi muomilaga ega bòlib, intizomli bo'lib o'sishlari, ota-onalarini hurmat qilib, ularga mehribonlik hissi bilan tòğri xulq-atvorda bòlishi, bo'ysinislari lozim. Bu degani, ya'niy farzandlarning ota-onalarga bo'ysinishi, ularga nisbatan o'zboshimchalik singari



salbiy hususiyatlarni yo'qotishiga asoslanadi. Chunki, yosh voyaga yetmagan bolalarning òz ota-onalariga bo'yinishdan bosh tortishi kelajakda ularning qo'pol xulq-atvorda bo'lib yetishuviga olib keladi. Shu bois ham yosh avlod ilk tarbiyani ota-onadan, oiladan oladi.

Mustahkam va sog'lom oilalarda tarbiya olgan yoshlar kelajakda davlatimiz rivoji uchun munosib hissa qo'shib, hissa qo'shib, xalqimizning farovon va obod turmush sharoitida yashashlarida ham o'zlarining halol mehnatlari, yaxshi tarbiyasi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham davlatimiz kelajak yoshlar uchun har bir sohada bir qancha imtiyozlar yaratib bermoqda. Bu Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham yaqqol namayon bòladi. Masalan, asosiy qonunning 79-moddasida shu mavzuga oid modda kiritilgan:

«Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.»¹

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida keltirilgan shu moddaga asosan, bugungi kunda davlatimizda kelajak yoshlar hayotida katta ahamiyat kasb etuvchi har xil sohalarga oid masalalarni bartaraf etish, ularning ta'lim olishi, kasb-hunar o'rGANISHI va qiziqishlarini aniqlab, shu borada ko'plab ish olib borishi, ilmiy xizmatlar bilan ishlashlari uchun katta imtiyozlar yaratib bermoqda.

Mamlakatimizda har bir soha juda katta tezlik bilan rivojlanayotgan bir vaqtda, prezidentimiz tamonidan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, kasb-hunar egallashi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Shu bois ham, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev oila va unda voyaga yetib kelayotgan bolalar, yoshlar tarbiyasiga oid bir qancha farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqardi, bu albatta yurtboshimizning o'sib kelayotgan yosh avlodning kamolotiga befarq emasligidan dalolat beradi.

“Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyası 79-moddası.



bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlari. Mayli, yoshlari o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.”² – dedi Prezidentimiz.

Hurmatli Prezidentimiz ta’kidlab o’tganidek, davlatning ertangi kungi rivoji, yurtimiz kelajagi bu yoshlarning qo’lida, shu bois biz vatanimizning gullab-yashnashi uchun birinchi navbatda ana shu kelajak yoshlari tarbiyasiga katta ahamiyat berishimiz kerak. Ya’niy, bu aynan oilada beriladigan tarbiya, oiladagi muhit, o’sib kelayotgan, shu oilada tarbiya olayotgan bolalarga, ota-onalarinning bolalar tarbiyasiga befarq bo’lmasligi, har bir bolani vatanga muhabbat hissi bilan ulg’aytirish singari masalalarni qamtib olganlikda ko’rinadi.

“Agar, bir kishi yoshlida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo’lib o’sdimi , bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib, yulduzlarga qo’l uzatmoq kabitidir,³” – deya bolalarning tarbiyasi haqida ulug’ allomamiz Abdullo Avloniy o’zining “Turkiy guliston yoxud Axloq” nomli asarida yozib qoldirgan edi. Albatta, buyuk mutafakkir firkiga asoslansak, bolalarga tarbiya berishda sergak bo’lish, hattoki kichkina paytidan boshlab, ularga yaxshilik-yamonlik, haq va nohaq kabi tushunchalardi to’g’ri tushuntirib, har xil tarbiyasiga zid keluvchi illatlardan uzoq yurishni uqtirish kerak.

Oilada tarbiya topgan xar bir inson xar jixatdan umuminsoniy ahloqiy, ilmiy, e’tiqod va boshqa sohalarda kamolatga yetgan hislatlarni o’zida mujassamlashtirgan bo’lishi lozim, kamolot sari intilgan kishi asta-sekin olamni, o‘zligini taniy boshlaydi.

«Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasnadir.

Bola o‘z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o‘z manfaatlari ta’minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega.

Bolaning ota-onasi bo‘limganda yoki ular ota-onalik huquqididan mahrum qilinganda va bola ota-oni qaramog‘idan mahrum bo‘lgan boshqa hollarda uning

² 2017-yili 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o’tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda Shavkat Mirziyoyevning so‘zlagan nutqi

³ Abdullo Avloniy. “Turkiy guliston yoxud Axloq” Toshkent. Yoshlar mahriyot uyi 2017-yili.



oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.»⁴— O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 65-moddasida belgilab o'tilgan. Bu degani, yoshlarning oilada tarbiya olish huquqi har tamonlama davlatimiz qonunchiligidagi ko'rsatilgan bo'lib, unga hammamiz birdek bo'ysinamiz.

Xulosa qilib aytganda, dunyoqarashi, bilimi, tarbiyasi yaxshi bolaning kelajagi ham porloq bo'ladi. Ertangi kuni davlatimizning umumjahon miqyosida rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinnegallashi, yurtimizning tinch turmush sharoitida yashashida o'z hissalarini qo'shadigan shu mustahkam oilalarda barkamollikka erishgan yoshlar hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 79-moddasi.
2. 2017-yili 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning soғligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda Shavkat Mirziyoyevning so'zlagan nutqi
3. Abdullo Avloniy. "Turkiy guliston yoxud Axloq" Toshkent. Yoshlar mahriyoti uyi 2017-yili.
4. <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. 18.05.2022

⁴ <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. 18.05.2022